

EDUCATION OF YOUNG GENERATION-KEY TO HAPPINESS

Abdurahim Khasanovich Khasanov

Associate Professor, Institute for Retraining and
Advanced Training of Physical Education and Sports

ABSTRACT

In given article the basic features and methods of increase of spiritually-moral shape of youth in a civil society in the conditions of Uzbekistan are considered.

Keywords: youth, the youth policy, the spiritually-moral shape, harmoniously developed generation

YOSH AVLOD TARBIYASI-BAXT-SAODAT KALITI

Abdurahim Xasanovich Xasanov

Dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

ANNOTATSIYA

Maqola yosh avlov tarbiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olayotgan bir sharoitda yosh avlod tarbiyasiga befarq bo'lmaslik, yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etishga yo'l qo'ymaslik, oila-jamiyatning tayanchi ekanligi haqidagi g'oyalar maqola mazmuniga singdirib yuborilgan.

Kalit so'zlar: raqobat, qarama-qarshilik, ziddiyat, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, yoshlarga oid davlat siyosati, oila, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, oila-jamiyatning tayanchi,farzand tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные особенности и методы повышения духовно-нравственного облика молодёжи в гражданском обществе в условиях Узбекистана.

Ключевые слова и фразы: молодёжь, молодёжная политика, духовно-нравственный облик, гармонично развитое поколение

Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonalarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega masala bo'lib kelgan. Biz yashayotgan XXI asrda esa u haqiqatan ham yo hayot, yo mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qanchalik mukammal bo'lsa, xalq shunchalik baxtli yashaydi", degan hikmat bor. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa mazkur sohada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan bebahom a'maviy e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda.

Shu boisdan ham mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati qanday amalga oshirilayapti, bu sohada qanday muammolar bor, ularni qanday hal qilishimiz kerak, degan savollar doimiy

e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Yoshlar ishtirokida huquqbazarlik, jinoyat sodir etilayotgani, yosh oilalar o'rtaida ajralish holatlarining qayd etilayotgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak.

Yoshlar o'rtaida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlarga qo'shilib qolish holatlari uchramoqda. Albatta, bu borada hamma aybni u yoki bu idoraga, tashkilotga yuklab qo'yish adolatdan emas. Bu masalada hammamiz javobgarmiz. Hech kimning bu jarayonlardan chetda turishga haqqi yo'q. Biz yoshlarga bepisand, loqayd munosabatda bo'lsak, oqibati nima bo'lishi aniq-ular ham bizdan begonalashadi. O'qishdan, ishdan, jamiyatdan, davlatdan, boringki, hayotdan ko'ngli sovib, qo'lini yuvib, qo'ltig'iga uradi. Shuning uchun dabdabali, balandparvoz tadbirlar o'tkazish emas, balki yoshlar bilan bevosita ishslash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o'ylantirayotgan hayotiy muammolarni hal etishga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi

Jumladan, keyingi paytda turli mamlakatlarda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining ijrochilari qatorida millatimizga mansub kimsalar ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg'otmoqda. Tinchlik va osoyishtalikni, insoniylikni hamma narsadan ustun qo'yadigan xalqimiz bunday kimsalarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Ularni o'zbek degan nomga nomunosib hisoblaydi.

Hozirgi vaqtida yoshlar, ayniqsa, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimiz terrorizm va ekstremizm changaliga tushib qolmasligi uchun davlatimiz barcha choralarini ko'rayapti. Bu yo'lda avvalambor, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'ida mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Mamlakatimizning bu boradagi pozitsiyasi aniq: odam qaerda bo'lsa ham ishlashi, oilasi, bola-chaqasini boqishi kerak. Lekin u halol mehnat qilishi, qonuniy yo'l bilan daromad topishi lozim. Buning uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib berayotgani e'tiborga molik.

Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun asosiy masala bo'lib turibdi. Respublikamizda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan amaliy ishlar olib borilayapti. Shuning uchun yo'ldan adashgan o'smirni darrov dushmaniga chiqarmasdan, uni o'zimizning farzandimiz, deb biliшимиз kerak.

Biz ko'pincha bolam maktabda, o'qishda yoki chet elda ishlayapti, deb xotirjam yuramiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorlik bilan foydalanmoqda. Jonu jahonimiz bo'lgan farzandimiz ular qo'lida quroqga aylanib qolsa, buning uchun kim aybdor? O'zimiz emasmi? Shuning uchun mакtab, litsey va kollejlardagi, oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berishimiz shart. Bironta o'quvchi yoki talaba uzrsiz o'qishga kelmay qo'ysa, ta'lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu borada sergak tortishi, buni favqulodda holat deb baholashi kerak. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o'zaro bog'liqlikda ishlaydigan bo'lsa, albatta, biz vaziyatni qo'lga olib, uni ijobiy tomonga o'zgartira olamiz. Yurtbosimiz alohida ta'kidlaganidek, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o'rganish, ushbu toifa shaxslar nega radikallashib ketganining sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim. Ana shu ishlarning natijalari bo'yicha

davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qo'llash uchun aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqishni bugun hayotning o'zi talab etmoqda. Agar biz shu yo'nalishdagi ishlarni avvalgidek davom ettiradigan bo'lsak, ya'ni umumiy profilaktika ishlarini yoshlar radikal diniy oqim a'zosiga aylanganidan so'ng o'tkazadigan bo'lsak, bunday xavf-xatarga qarshi samarali kurasha olmaymiz.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergen.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-onas" degan ibratlari maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyoy tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-onas o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarining odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-onas bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat matabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb beziz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-onas har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oljanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi.

Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar.

Bolalarini intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlargu hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rinn berilgan.

Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor bergenlar.

Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroli odobidan umid qilgan ota-onas, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

- odamlar xursandchilagini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

Ota-bobolarmiz azaldan o'g'il qizlarning go'zal xulqli, odobli bo'lishiga katta ahamiyat bergenlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo'yiladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylik, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'nalariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" PF-5618-sod Farmoniga ilova qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi". Toshkent.: 2019 yil 9 yanvar.
2. Mirziyoyev:Sh.M. 2020 yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuv. Toshkent.: 2019 yil 27 dekabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar. Toshkent.: 2019 yil 19 mart
4. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. Toshkent.: "O'qituvchi", 1993 yil, 182-bet.
5. Abu Lays Samarqandiy. "Tanbehul g'ofiliyn". Toshkent.: "Movarounnahr", 1998 yil, 108-112-betlar.